

PAPER

IQTISODIY O'SISHNI IJTIMOYIY, IQTISODIY VA EKOLOGIK JIHATDAN BARQARORLIK MEZONLARI ASOSIDA TA'MINLASH

Eshmatova Gulzoda Abduraximovna^{1,*}

¹Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti Iqtisodiyot yo'nalishi 1-kurs magistr talabasi

* eshmatova548@gmail.com

Abstract

Mazkur maqolada iqtisodiy o'sishni barqaror rivojlanish mezonlari asosida ta'minlash masalalari tahlil qilingan. Bugungi globallashuv sharoitida yalpi ichki mahsulotning oddiy o'sishi emas, balki uning ijtimoiy adolat, iqtisodiy barqarorlik va ekologik muvozanat talablariga javob beradigan sifat ko'rsatkichlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Maqolada barqaror iqtisodiy o'sishning uchta asosiy mezoni – ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik jihatlar atroflicha yoritilgan.

Key words: iqtisodiy o'sish, barqaror rivojlanish, ijtimoiy barqarorlik, ekologik barqarorlik, yashil iqtisodiyot, investitsiyalar, innovatsiyalar, "O'zbekiston–2030" strategiyasi.

O'zbekiston Respublikasining 2023-yilda yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyasi barqaror iqtisodiy o'sishning konstitutsiyaviy asoslarini mustahkamladi. 2023-yil 30-aprelda o'tkazilgan referendumda umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya Yangi O'zbekistonni barpo etishning konstitutsiyaviy asoslarini yanada mustahkamlashga xizmat qildi. Konstitutsiyaning ijtimoiy davlat tamoyili, inson qadr-qimmatini ta'minlash, iqtisodiy va ijtimoiy sohalaridagi islohotlarning huquqiy kafolatlari barqaror rivojlanishning mustahkam poydevorini tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi

Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi mavzuga oid eng muhim hujjat hisoblanadi.

Mazkur Farmonda strategiyaning quyidagi asosiy g'oyalari aks ettirilgan :

- barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin olish;
- aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish;
- xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish;

Compiled on: February 16, 2026.

Copyright: ©2026 by the authors. Submitted to *Advances in Science and Sustainability* for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

- mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta'minlash.

Strategiyada barqaror rivojlanishning uchta asosiy mezon — iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlar uyg'unligi ta'minlangan. Xususan, strategiyaning "Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish" deb nomlangan birinchi yo'nalishida ta'lim tizimi islohotlari, pedagog kadrlar maqomini oshirish, nodavlat ta'lim tashkilotlarini rivojlantirish kabi ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi vazifalar belgilangan. Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid Farmon O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-martdagi PF-5975-son "Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning institutsional asoslarini belgilaydi.[2]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-son "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash dasturi to'g'risida"gi Qarori ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan muhim hujjatdir.[4]

Qarorda "yashil" iqtisodiyotga o'tishning quyidagi ustuvor yo'nalishlari belgilangan:

- tabiiy resurslardan barqaror va samarali foydalanish;

- milliy iqtisodiyotning tabiiy ofatlar va iqlim o'zgarishiga nisbatan barqarorligini mustahkamlash;

- milliy iqtisodiyot, xususan, sanoatning "yashil" va kam uglerodli rivojlanishini ta'minlash;

- innovatsiyalarni joriy etish va samarali "yashil" investitsiyalarni jalb qilish;

- barqaror va inklyuziv "yashil" urbanizatsiyani rivojlantirish;

- "yashil" o'sish bo'yicha salohiyatni oshirish va inson kapitalini rivojlantirish;

- "yashil" iqtisodiyotga o'tish uchun qulay siyosiy muhit yaratish, samarali institutlarni joriy qilish;

- tashqi va ichki "yashil" moliyalashtirish oqimlarini ko'paytirish. [4]

O'zbekiston BMTning 2030-yilgacha barqaror rivojlanish sohasidagi kun tartibini amalga oshirish bo'yicha jahondagi 192 ta mamlakat bilan birgalikda qabul qilingan majburiyatlarni to'liq bajarmoqda.

Barqaror rivojlanishning maqsad va vazifalari mamlakat va hududlarning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik rivojlanishi bo'yicha ishlab chiqilgan va amalga oshirilayotgan strategiyalar, konsepsiyalar, yo'l xaritalari bilan mutanosibdir.

Yangi O'zbekistonning "Inson sha'ni va qadr-qimmatini yo'lida" deb nomlanuvchi asosiy tamoyili BMTning "Hech kimni ortda qoldirmang" barqaror rivojlanish tamoyiliga mos keladi. Taraqqiyot strategiyasi barqaror rivojlanishning barcha milliy maqsadlari va vazifalarini qamrab oladi hamda ularga 2030-yilgacha erishish uchun mustahkam asos yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 7-fevraldagi Farmoni bilan 2025-yil "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yili" deb e'lon qilingan. Farmonda "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini keng joriy qilish, iqtisodiyotni iqlim o'zgarishiga moslashtirishga qaratilgan loyihalarni barqaror moliyalashtirish ustuvor vazifa etib belgilangan.

Yirik strategik korxonalar tomonidan ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) tamoyillari asosida korporativ dasturlar ishlab chiqilishi va kamida 5 ta yirik sanoat korxonasida ESG milliy hisoboti yo'lga qo'yilishi belgilangan. Iqtisodiy o'sish va barqaror rivojlanish o'rtasidagi munosabatlar iqtisodiy nazariyaning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. An'anaviy iqtisodiy modellar asosan yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlariga e'tibor qaratgan bo'lsa, bugungi kunda ushbu yondashuv yetarli emasligi tan olinmoqda.

Barqaror iqtisodiy o'sish deganda, nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlarning ijobiy dinamikasi, balki quyidagi jihatlarining ta'minlanganligi tushuniladi: aholi daromadlarining adolatli taqsimlanishi, ijtimoiy himoya tizimining samaradorligi, bandlik darajasining yuqoriligi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitga yetkazilayotgan zararning minimallashtirilishi.[6]

Iqtisodiy adabiyotlarda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning uchta asosiy mezon ajratib ko'rsatiladi:

1. Iqtisodiy barqarorlik mezon — makroiqtisodiy muvozanatning saqlanishi, inflyatsiyaning barqaror darajasi, byudjet taqchilligining maqbul chegaralarda bo'lishi, investitsion muhitning qulayligi va iqtisodiyotning tashqi shoklarga chidamliligi.

2. Ijtimoiy barqarorlik mezoni – aholi daromadlari o'rtasidagi tafovutning qisqarishi, kambag'allik darajasining pasayishi, sifatli ta'lim va tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatining tengligi, mehnat bozoridagi muvozanat.

3. Ekologik barqarorlik mezoni – tabiiy resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish, ishlab chiqarish chiqindilarining kamaytirilishi, qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushining oshishi, ekologik toza texnologiyalarning joriy etilishi. [6]

Ushbu mezonlarning barchasi o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, birining ikkinchisidan ajralgan holda ta'minlanishi barqaror rivojlanishga erishish imkonini bermaydi.

Iqtisodiy barqarorlik – bu milliy iqtisodiyotning ichki va tashqi omillar ta'siriga chidamliligi, makroiqtisodiy muvozanatning saqlanishi va uzoq muddatli iqtisodiy o'sishning kafolatlanishidir. O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida iqtisodiy barqarorlikka erishish yo'lida bosqichma-bosqich chuqur islohotlarni amalga oshirmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda byudjet siyosati, moliyaviy boshqaruv va iqtisodiy nazorat sohasida yirik tub o'zgarishlar amalga oshirilmogda. 2025-yil 1-mayda qabul qilingan Iqtisodiyot va moliya vazirining 3290-1-sonli buyrug'i byudjet intizomini ta'minlash, moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirish hamda davlat xarajatlarining manzilliligini ta'minlashga qaratilgan muhim hujjat bo'ldi. Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda investitsiyalarning roli beqiyos. 1997–2023-yillar davrida O'zbekiston bo'yicha o'tkazilgan ekonometrik tahlillar TXI, iqtisodiy o'sish va savdo ochiqdigi o'rtasida uzoq muddatli kointegratsiya munosabatlari mavjudligini tasdiqlagan.

Investitsion jozibadorlikni oshirishda raqamli iqtisodiyotning o'rne ham alohida ahamiyat kasb etadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining yuqori darajasi nafaqat investitsiyalarni jalb etishga yordam beruvchi omil, balki mamlakatlarning makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. [1] Raqamlashtirish davlat xarajatlari samaradorligini oshirishi, YaIMga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, xalqaro savdo ko'rsatkichlarini yaxshilashi va ishsizlikni kamaytirishi mumkin. Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning yana bir muhim yo'nalishi – bu mahalliy sanoatni rivojlantirishdir. 2024-yilning dastlabki to'rt oyida O'zbekiston sanoat sohasida 6,3

foizlik o'sish kuzatilgan va umumiy ishlab chiqarish hajmi 290 trillion so'mga yetgan. Bu ko'rsatkichlar mahalliy ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash, milliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish va eksport salohiyatini kuchaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini ko'rsatadi. Iqtisodiy barqarorlik milliy iqtisodiyotning ichki va tashqi omillar ta'siriga chidamliligi, makroiqtisodiy muvozanatning saqlanishi va uzoq muddatli iqtisodiy o'sishning kafolatlanishidir. Bu tushuncha nafaqat yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlarini, balki inflyatsiyaning barqaror darajasini, byudjet taqchilligining maqbul chegaralarda bo'lishini, investitsion muhitning qulayligini va iqtisodiyotning tashqi shoklarga chidamliligini ham o'z ichiga oladi.

O'zbekiston iqtisodiyoti so'nggi yillarda barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etmoqda. 2024-yilda mamlakat yalpi ichki mahsuloti (YaIM) hajmi 115 mlrd. dollarga yetib, o'tgan yilga nisbatan 6,5 foiz o'sish qayd etildi. 2017–2024 yillar davomida YaIM hajmi 1,55 barobarga oshgan bo'lib, bu ko'rsatkich iqtisodiy islohotlarning izchilligi va ishlab chiqarish salohiyatining ortib borayotganidan dalolat beradi. [7] Shu bilan birga, inflyatsiya darajasini pasaytirish borasida sezilarli yutuqlarga erishildi. 2025-yil dekabr oyida umumiy inflyatsiya yillik hisobda 7,3 foizgacha pasaydi, bazaviy inflyatsiya esa 5,7 foiz darajasida shakllandi. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda Markaziy bankning pul-kredit siyosati muhim rol o'ynamoqda. 2026-yil yanvar holatiga asosiy stavka yillik 14 foiz darajasida belgilangan bo'lib, bu inflyatsion xatarlarni jilovlash va ijobiy real foiz stavkalarini saqlab qolish imkonini bermoqda. Bank-moliya tizimini isloh qilish, xususan, regulyativ tizimni takomillashtirish va Basel III talablariga muvofiqlashtirish moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. 2024-yilda tijorat banklaridagi omonatlar hajmi 308,7 trln. so'mga yetgani aholining moliya tizimiga bo'lgan ishonchi ortib borayotganini ko'rsatadi.

Tashqi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda oltin-valyuta zaxiralari va tashqi qarzdorlik darajasi muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston yuqori darajadagi toza oltin-valyuta zaxiralarini saqlab qoldi – 41,2 mlrd. dollar (YaIMning 36 foizi), bu esa makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minladi hamda qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash

uchun yetarli likvidlik yaratdi. Tashqi qarz esa 60 mlrd. dollar (YaIMning 52 foizi) darajasida shakllangan. Ichki valyuta bozorida xorijiy valyuta taklifining eksport tushumlari va pul o'tkazmalari hisobiga qo'llab-quvvatlanishi 2025-yilda so'mning 6,9 foizga mustahkamlanishiga xizmat qildi. Bu import inflyatsiyasi bosimini kamaytirishga va iqtisodiyotdagi dollarlashuv darajasini pasaytirishga yordam berdi. Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda "yashil iqtisodiyot" va raqamli texnologiyalarning o'rni tobora ortib bormoqda. O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushi 2024-yilda 16 foizga yetdi. Buxoro, Navoiy va Namanganda qurilgan quyosh va shamol elektr stansiyalari mamlakatning energetik mustaqilligi sari tashlangan muhim qadamlardir. Raqamlashtirish jarayonlari esa davlat xarajatlari samaradorligini oshirish va xalqaro savdo ko'rsatkichlarini yaxshilash imkonini bermoqda. Internet tezligining 4200 Gbit/s. ga yetkazilishi va aholi punktlarini 97,5 foiz darajada keng polosali internet bilan qamrab olish raqamli iqtisodiyot rivojiga zamin yaratmoqda.

Iqtisodiy o'sishning pirovard maqsadi – aholi farovonligini oshirishdan iborat. Shu sababli, iqtisodiy o'sishning ijtimoiy mezonlari uning samaradorligini baholashda muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik bir qator yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

Birinchidan, ijtimoiy himoya tizimining samaradorligi aholining kambag'al qatlamlarini qo'llab-quvvatlash orqali ichki talabni rag'batlantiradi va iqtisodiy o'sishga turtki beradi.

Ikkinchidan, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlariga yo'naltirilgan investitsiyalar inson kapitalining sifatini oshiradi, bu esa uzoq muddatli istiqbolda mehnat unumdorligining o'sishiga olib keladi.

Uchinchidan, daromadlarning adolatli taqsimlanishi ijtimoiy totuvlikni ta'minlaydi, bu esa iqtisodiy barqarorlik uchun zarur bo'lgan siyosiy barqarorlikni kafolatlaydi.

Iqtisodiy o'sishning pirovard maqsadi – aholi farovonligini oshirishdan iborat. Shu sababli, iqtisodiy o'sishning ijtimoiy mezonlari uning samaradorligini baholashda muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy barqarorlik deganda, jamiyatda ijtimoiy adolatning ta'minlanganligi, aholi daromadlari o'rtasidagi tafovutning maqbul darajada bo'lishi,

kambag'allikning qisqarishi va ijtimoiy himoya tizimining samarali faoliyat yuritishi tushuniladi.

Mahallalarda faoliyat yuritayotgan ijtimoiy xodimlar tomonidan uyma-uy yurib o'tkazilgan monitoring natijasida reyestrda bo'lmagan yana 95 ming muhojir odamga yordam ko'rsatildi. 51 ming odamga nogironlik belgilandi, 26 ming nafari protez oldi, nogironligi bor 5 ming bola bog'cha-maktabga joylashtirildi. Bu raqamlar ijtimoiy himoya tizimining qamrovi kengayib, aholining eng zaif qatlamlari davlat e'tiboridan chetda qolmayotganidan dalolat beradi. Ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini oshirishda davlatning tartibga soluvchi roli muhim ahamiyat kasb etadi. Mutaxassislarining fikricha, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti shunday tizimki, u bir tomondan erkin bozorning o'zini o'zi tartibga solish tamoyillariga asoslansa, ikkinchi tomondan xususiy tadbirkorlik va nodavlat sektorning aholiga xizmat qilishini ta'minlaydi.

Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlariga yo'naltirilgan investitsiyalar alohida ahamiyat kasb etadi. Bu sohalariga yo'naltirilgan mablag'lar inson kapitalining sifatini oshiradi, bu esa uzoq muddatli istiqbolda mehnat unumdorligining o'sishiga olib keladi. Kambag'al oila farzandlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida chet tili, IT va kasb-hunarga o'qitish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar yaratilmoqda. Kambag'al oilalardagi 118 ming yoshlarni o'qitish tizimi yo'lga qo'yilib, 2025-yilda 3,5 ming yoshlarni oliygohga grant asosida qabul qilish rejalashtirilgan.

Ijtimoiy barqarorlikning muhim ko'rsatkichlaridan biri – aholining turmush sharoitidir. 2024-yilda O'zbekistonda foydalanishga topshirilgan uy-joy maydoni 14,8 mln. m² ni tashkil etdi, bu o'tgan yilga nisbatan 8,8 foiz ko'pdir. Ushbu ko'rsatkichning 10 mln. m² qismi qishloq hududlariga to'g'ri keladi. 2017-2024 yillar davomida uy-joy qurilishi hajmi 2,1 barobarga oshdi, bu esa uy-joy qurilishi bo'yicha yirik davlat dasturlari va ipoteka kreditlashni kengaytirish natijasidir.

Ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik bir qator yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Birinchidan, ijtimoiy himoya tizimining samaradorligi aholining kambag'al qatlamlarini qo'llab-quvvatlash orqali ichki

talabni rag'batlantiradi va iqtisodiy o'sishga turtki beradi. Ikkinchidan, daromadlarning adolatli taqsimlanishi ijtimoiy totuvlikni ta'minlaydi, bu esa iqtisodiy barqarorlik uchun zarur bo'lgan siyosiy barqarorlikni kafolatlaydi.

O'zbekistonning ijtimoiy davlat sifatidagi konstitutsiyaviy maqomini ta'minlashda davlat boshqaruv idoralari bilan bir qatorda nodavlat institutlar, jamoatchilik va siyosiy partiyalarning faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq demokratik partiyasi tomonidan ilgari surilayotgan insonparvarlik, tenglik g'oyalarini islohotlarga chuqur singdirish, ijtimoiy adolat va birdamlikni hamma narsadan ustun qo'yish siyosati aynan shu maqsadga xizmat qilmoqda.[5]

Davlat moliyasining ijtimoiy yo'naltirilganligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Byudjet mablag'larining maqsadli va samarali sarflanishi ustidan nazoratning kuchaytirilishi, ichki moliyaviy nazorat tizimining takomillashtirilishi ijtimoiy dasturlarning moliyalashtirilishini kafolatlaydi. Iqtisodiyot va moliya vazirining 3290-1-sonli buyrug'i bilan barcha byudjet tashkilotlarida moliyaviy nazorat uchun mas'ul alohida bo'linma yoki mas'ul shaxs tayinlash majburiyati joriy etilgani ham aynan shu maqsadga xizmat qiladi

Ekologik barqarorlik zamonaviy iqtisodiy o'sish konsepsiyasining ajralmas qismiga aylangan. Iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi va atrof-muhit ifloslanishi global miqyosda iqtisodiyotning ekologik jihatdan barqaror modellarga o'tish zaruratini yuzaga keltirmoqda. "Yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi aynan shu ehtiyojdan kelib chiqqan bo'lib, u past karbonli rivojlanish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy adolat kabi tamoyillarga asoslanadi.[3]

Ekologik barqarorlikni ta'minlashda quyidagi yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o'tish – quyosh va shamol energiyasidan foydalanish ulushini oshirish, an'anaviy energiya manbalariga qaramlikni kamaytirish.

2. Energiya samaradorligini oshirish – ishlab chiqarish jarayonlarida energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish, energiya iste'molini optimallashtirish.

3. Chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash – ishlab chiqarish chiqindilarini qayta ishlash tizimini

yo'lga qo'yish, "aylanma iqtisodiyot" tamoyillarini joriy etish.

4. Ekologik toza texnologiyalarga investitsiyalar – "yashil" innovatsiyalarni rag'batlantirish, ekologik loyihalarni imtiyozli moliyalashtirish.[8]

Raqamli transformatsiya jarayonlari ham ekologik barqarorlikka ikki tomonlama ta'sir ko'rsatmoqda. Bir tomondan, raqamli texnologiyalar resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va chiqindilarni kamaytirish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, rivojlanayotgan mintaqalarda ular ekologik muammolarni kuchaytirishi mumkin. O'zbekistonda "yashil iqtisodiyot"ga o'tish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. "O'zbekiston–2030" strategiyasida "yashil iqtisodiyot" va "yashil o'sish"ni ta'minlash alohida ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini oshirish, suv resurslaridan tejamkorlik bilan foydalanish, chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha aniq maqsadli ko'rsatkichlar ishlab chiqilgan.

Strategiyaning iqtisodiy blokida yalpi ichki mahsulotni ikki baravar oshirish, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravar ko'paytirish, eksport hajmini 45 milliard dollarga yetkazish kabi aniq maqsadli ko'rsatkichlar belgilangan. Ijtimoiy yo'nalishda esa kambag'allikni qisqartirish, aholining real daromadlarini oshirish, sifatli ta'lim va tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish vazifalari qo'yilgan. Ekologik barqarorlikni ta'minlash bo'yicha qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 25 foizga yetkazish, suv tejovchi texnologiyalar joriy etilgan maydonlarni kengaytirish, chiqindilarni qayta ishlash darajasini oshirish kabi vazifalar belgilangan.

Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda hududlarning rolini ham alohida ta'kidlash lozim. Mintaqaviy darajada barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun mahalliy sharoit va imkoniyatlarni hisobga oluvchi differensiallashgan yondashuv zarur. Raqamli transformatsiya jarayonlari mintaqaviy iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish bilan birga, rivojlanayotgan hududlarda tengsizliklarni kuchaytirishi mumkinligini ham unutmash kerak.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, iqtisodiy o'sishni ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik jihatdan

barqarorlik mezonlari asosida ta'minlash zamonaviy iqtisodiy siyosatning markaziy vazifasidir. An'anaviy iqtisodiy modellardan farqli o'laroq, barqaror rivojlanish konsepsiyasi iqtisodiy o'sishning miqdoriy ko'rsatkichlari bilan bir qatorda, uning sifat jihatlariga ham e'tibor qaratishni talab etadi. O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash bo'yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. "O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida belgilangan ustuvor yo'nalishlar iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik barqarorlikni kompleks ta'minlashga qaratilgan. Shu bilan birga, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Barqaror iqtisodiy o'sishni monitoring qilishning kompleks tizimini joriy etish, bunda nafaqat makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, balki ijtimoiy va ekologik mezonlar ham inobatga olinishi lozim.

2. "Yashil" investitsiyalarni rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish, ekologik toza texnologiyalarni joriy etuvchi korxonalar uchun imtiyozlar tizimini kengaytirish.

3. Ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan kengroq foydalanish, byudjet mablag'laridan tashqari qo'shimcha manbalarni jalb etish.

4. Raqamli transformatsiya jarayonlarini ekologik barqarorlik talablari bilan uyg'unlashtirish, "yashil raqamli iqtisodiyot" konsepsiyasini rivojlantirish.

5. Hududlarning barqaror rivojlanish dasturlarini ishlab chiqishda mahalliy ekologik va ijtimoiy sharoitlarni hisobga olish, differensiallashgan yondashuvni qo'llash.

Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash uzoq muddatli, kompleks va tizimli yondashuvni talab qiladigan jarayondir. Faqat iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik barqarorlik mezonlarining birligidagina haqiqiy taraqqiyotga erishish mumkin. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida iqtisodiy o'sishni ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik barqarorlik mezonlari asosida ta'minlash masalasi kompleks tarzda o'z ifodasini topgan. Konstitutsiyadan tortib, Prezident farmonlari va qarorlarigacha bo'lgan hujjatlarda barqaror rivojlanishning uchta asosiy mezoni uyg'unligi ta'minlangan. "O'zbekiston — 2030" strategiyasi, "yashil" iqtisodiyotga oid dasturlar va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha hujjatlar

mazkur yo'nalishdagi islohotlarning huquqiy asosini tashkil etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rajabov A. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida raqamli transformatsiyaning mintaqaviy iqtisodiy tendensiyalarga ta'siri. Science and Publication, 111-118. 2025
2. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2025-yil 1-maydagi 3290-1-sonli "Byudjet intizomini ta'minlash va moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi buyrug'i.
3. Xudayberganov A. Yashil iqtisodiyot: XXI asrda barqaror rivojlanish yo'li sifatida. Zenodo. 2025. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15497548>
4. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti. Barqaror iqtisodiy rivojlanish va "O'zbekiston-2030" strategiyasining ustuvor yo'nalishlari" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2025
5. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti. "Barqaror iqtisodiy rivojlanish va 'O'zbekiston-2030' strategiyasining ustuvor yo'nalishlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. <https://nuu.uz/barqaror-iqtisodiy-rivojlanish-va-ozbekiston-2030-strategiyasining-ustuvor-yonalishlari-mavzusidagi-xalqaro-ilmiy-amaliy-konferensiya-bo/>
6. Tursunov B. Barqaror rivojlanishga erishishda iqtisodiy o'sishning roli: investitsiyalar, infratuzilma va texnologik innovatsiyalar. 2024
7. Pardayeva D. Investitsion jozibadorlikni oshirishda raqamlashtirilgan iqtisodiyotning o'рни. Raqamli Iqtisodiyot. 2025. 4(4), 131-136.
8. Niyazova M. Barqaror rivojlanish istiqboli uchun zamonaviy dunyoda iqtisodiyotning "yashil" ga aylanishi zarurati. Cyberleninka. 2024
9. Ihtisham U. H., Zeinabsadat, G. Iqtisodiy o'sish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar

va savdo ochiqligi: O'zbekiston uchun sabab-
oqibat tahlili. *Ilg'or Iqtisodiyot va Pedagogik
Texnologiyalar*, 2(3), 604-612. 2025

10. Yo'ldosheva M. Mahalliy sanoat-barqaror
iqtisodiy o'sishning tayanchi. *Tayloq News*.2025
11. <http://tayloqnews.uz>